
ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 9

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 9

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)*
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Тилшуносликда миллат ассоциатив портретини аниқлаш методикаси..... 7

IBRAGIMOV JAVLON YORMATOVICH
Nutqiy sistema lisoniy imkoniyatlar voqelanishi ko‘zgusida..... 12

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Uslub atamasining kelib chiqishi va uning til
taraqqiyotidagi turli davrlarda qo‘llanishi..... 15

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Darak gaplarda nutqiy akt tushunchasi 19

ABDULLAYEV DAVRONBEK
Lingvistik talqinda leksik ma’no o‘zgaruvi badiiy
nutqning daraja vositasi sifatida 22

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Odil Yoqubov asarlarida ruhiy holat so‘zlari va ularning
olam obrazini shakllantirishdagi ahamiyati 25

KADIROVA ZAYNURA ZAYNIDINOVNA
Filologik terminologiyaning mohiyati va xususiyatlari 30

НОРБОЕВА ДИЛАФРЎЗ ЖУМАҚУЛОВНА
Соҳавий терминлар ва уларнинг тил хусусиятлари 36

ISMOILOVA MAMLAKAT QURBONOVNA
Ijtimoiy tarmoq marketingi terminlarining o‘rganilish tarixi 39

MENGLIYEVA MUNIRA
Aspektual ma’no ifodalovchi leksemalarning ingliz izohli
lug‘atlaridagi talqinini takomillashtirish yo‘llari 42

МАМАСОЛИЕВ ИЛХАМ УБАЙДУЛЛАЕВИЧ
Приспособление иностранной лексики в русском языке
на основе материалов русскоязычных СМИ Узбекистана 46

МУНДАРИЖА

XODJIYEV YUSUF NORQULOVICH
O‘zbek tilida “ona” konsepti misolida “oilaparvarlik” xarakterining ifodalanishi 50

ALIMBEKOVA MAVJUDA XALIMJON QIZI
Fitrat korpusi lemmalarini avtomatik aniqlashda yuzaga kelgan muammolar 56

ADABIYOTSHUNOSLIK

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Понятие и особенности литературного цикла 59

ТУРСУНОВА НАСИБА
Мотам маросими ва иримлар талқинига доир 63

DAVLATOVA SHAHNOZA MUHAMMADIYEVNA
Jahon adabiyotida yurisprudensiya va sud
jarayonlari badiiy talqin etilgan asarlar tahlili 67

TANGIROV RO‘ZIBOY
Shukur Xolmirzayev hikoyalarida o‘zbek xarakterining badiiy ifodasi 69

QURBONOVA SARVINOZ GULBOYEVNA
Nodim Namangoniyning Qo‘qon adabiy muhitidagi o‘rni 73

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2024; 9
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ODIL YOQUBOV ASARLARIDA RUHIY HOLAT SO‘ZLARI VA ULARNING OLAM OBRAZINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Ergasheva Dilrabo Allanazarovna,
Termiz davlat universiteti
o‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Tasvirlash imkoniyati cheksizligining o‘ziga xosligini yaqqol ko‘rsatib turadigan narsa bu yozuvchining tildan foydalanish mahoratidir. Badiiy adabiyot tilida o‘sha asar yaratuvchisining o‘ziga xos individual xususiyatlari ko‘rinar ekan, yozuvchining uslubi ikki muhim nuqtada idrok va ifoda etish uslubida namoyon bo‘ladi[1]. Odil Yoqubov qahramon ruhiy holatining tasvirini yaratishda mana shu ikki uslub qorishuvidan ustalik bilan foydalana olgan mohir so‘z san’atkoridir.

Inson ruhiy holatini ifodalovchi sifatlar. Til har bir yozuvchi omillaridan biri bo‘lib, san’atkor qalamiga xos bo‘lgan individual tomonlar boshqa ko‘p badiiy faktorlarga nisbatan tilda ko‘proq namoyon bo‘ladi[2].

Inson olamiga xos bo‘lgan ruhiyat nihoyatda serqirra va turfa bo‘lib, u o‘zida *xursandlik, darg‘azablik, xafalik, loqaydlik, notinchlik, xotirjamlik* kabi har xil holatlarni mujassamlashtiradi. Tilimizda esa bu holatlarni ifodalovchi leksemalarga ehtiyoj tug‘iladi. Natijada *xafa, tinch, tund, xotirjam, g‘amgin, tajang, ma’yus, nolon, ruhsiz, notinch, xushhol, xushnud, xurram, quvnoq, shodmon, shod, xushchaqchaq, dilgir, xomush, ma’yus, giryon, xunibiyron, diltang, g‘azabnok, darg‘azab, g‘azabli, sergak, hushyor, lol, mudroq, loqayd* kabi leksemalar nutqda qo‘llaniladi. Bu leksemalarni Z.Mamarajabova “Ko‘rinish sifatlarining grammatik xususiyatlari”[3] nomli maqolasida birlashtiruvchi guruh holat bildiruvchi sifatlar guruhi deb atadi.

Inson ruhiy holatini ifoda etuvchi sifatlar so‘zlashuv nutqida ham, badiiy nutqda ham tengdek qo‘llanib, tasvirlanayotgan qahramonning turli xil kayfiyatini, ichki kechinmalarini, ruhiy iztiroblarini aks ettirish orqali kitobxonda va tinglovchida turli xil emotsiyalarni hosil qiladi. Ushbu sifatlar keng uslubiy imkoniyatga ega bo‘lganligi uchun ham badiiy asarlarda semantik-stilistik vosita sifatida faol qo‘llanadi.

Odil Yoqubov matn yaratar ekan, qahramonlar ruhiy holatini yoritib berishda ruhiy holatni ifodalovchi sifatlarni ham o‘z o‘rnida qo‘llaydi, natijada uslubiy ta’sirchanlik ortadi, badiiy tasvirda ifodaviylik ta’minlanadi.

Inson ruhiy holatini ifoda etadigan sifatlar, asosan, kishining xafalik, xursandlik, g‘azabli holatlarini tasvirlaydi. Bunday ifodalar Odil Yoqubov asarlarida juda ko‘p uchraydi. Adib qahramonlarning qalb tug‘yonlarini ruhiy holat sifatlari orqali ifodaganda qahramon nutqi va muallif nutqidan foydalanadi. Masalan: *U o‘zidan ham, kuyoviga aytgan gaplaridan ham – hammasidan mamnun, chunki bugungi suhbat kuyovida yaxshi taassurot qoldirganini sezardi* (“Diyonat”). Asar qahramoni Vohid Mirobidovning xusandlik holati *mamnun* sifati vositasida yorqin ifodalangan; *Go‘yo hamma menga kulib boqar, go‘yo yolg‘iz men emas, hamma baxtiyor, go‘yo odamlarning hammasi birdan bir-biriga mehribon, juda muloyim, juda yaxshi, juda g‘amxo‘r bo‘lib qolgan edilar* (“Muqaddas”). Matnda Sharifjonning qalbidagi tug‘yonlar *baxtiyor, mehribon, juda muloyim, juda yaxshi, juda g‘amxo‘r* kabi sifatlar vositasida ochib berilgan; *Soqijon Obidov qanday-dir darg‘azab bir alfozda polni gursillatib, eshiklarni sharaq-shuruq ochib kirib keldi* (“Diyonat”). Qahramonning benihoya g‘azablangan holati *darg‘azab sifati asosida* ifodalangan; *Rangi o‘chgan, entikib nafas olgan o‘gay ona, bejo, labida soxta tabassum, Latofatga allaqanday jur’atsizgina yaqinlashib, o‘pishgani labini cho‘zdi* (“Diyonat”). Matndagi *bejo, jur’atsizgina* sifatlari o‘gay onaning sarosimalanish holatini aks ettirgan; *Latofat esa ...katta-katta ma‘yus ko‘zlarini boqqa tikib, o‘yga tolgan, o‘ylari ham ko‘zlariday g‘amgin* (“Diyonat”). Mazkur matnda Latofatning g‘amga botgan holati ifodalanib, uning *ma’yus*

[1] Мамажонов С. Услуб жилолари. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – В. 80.

[2] Турсунов Ж. Ғ.Ғуломнинг прозадаги маҳоратига доир: Филол.фан. номз... дисс. – Тошкент, 1963. – В. 154.

[3] Mamarajabova Z. Ko‘rinish sifatlarining grammatik xususiyatlari // Til va adabiyot ta’limi, 2002, 2-son.

ko‘zlari hamda *g‘amgin* o‘ylari birikmalaridagi sifatlar qahramon ruhiyatidagi qalb kechinmalarini to‘laroq yoritib bergan. Odil Yoqubov asarlarida xursandlik holati, xafalik holati, g‘azablanish holati kabi inson ruhiy holatini ifoda etuvchi sifatlarning deyarli barcha turi qo‘llangani bois biz ularni alohida ajratib tahlil qilishga harakat qildik:

1. Odil Yoqubov asarlarida xafalik *(g‘amgin, xafa, xomush, ma’yus, giryon, xunibiyron, tushkun, notinch* kabi*)* holatini ifodalovchi sifatlar. Bunday leksik-semantik guruhlar tarkibiga kiruvchi sifatlarning qo‘llanishida farqli holatlar ham ko‘zga tashlanadi. Jumladan, matndagi *xafa, ga‘mgin, xomush* kabi sifatlar insonning yuz-ko‘zidan ifodalanib turadigan g‘amginlik holatini bildirishga xizmat qiladi, *g‘ash* holat sifati esa insonning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari bilan bog‘liq holatni aks ettiradi. Shu leksik-semantik guruh tarkibiga kiruvchi *ma’yus* so‘zida ruhiy holat ifodalash darajasi ancha kuchli bo‘lib, u insonning umidsizlikka tushgan, tushkun holatini ifodalaydi:

Xafa: *Otaqo‘zi to‘ydan so‘z ochgani uchun o‘zidan ham xafa; Fazilat juda xafa, yuragi siqilib, o‘rnidan turdi, xuddi keng hovli torlik qilayotgandek tuyulib...* (“Diyonat”); *– U sendan xafa, – dedi Sarkor sovuq bujmayib* (“Osiy banda”).

Ma’yus: *Lekin ustodning ma’yus chehrasida shunday bir iztirob barq urib turardiki, Qarqoniy gap-so‘zsiz hammasiga tushundi...; Xurshidabonu ma’yus ko‘zlariga tikilarkan, o‘z taqdiriga la’natlar o‘qidi* (“Ulug‘bek xazinasi”); *Kampirning ma’yus ko‘zlari yana jiqqa yoshga to‘ldi* (“Adolat manzili”).

G‘ash: *Otaqo‘zining ko‘nglini qattiq g‘ash qildi; Ziyofat vaqtida esa tog‘asining gapidan ko‘ngli g‘ash, “qittaygina” otib olib, ancha o‘yin ko‘rsatdi; Otaqo‘zi negadir ko‘ngli g‘ash bo‘lib, telefon zakaz qildi-da, divanga yonboshladi; Tohiraning gaplari oldin Latofatning ko‘nglini g‘ash qildi; Oktyabrning oxirlari edi shekilli, bir kun kechasi Fazilat yuragi g‘ash, uyqusi qochib, yettinchi lampa shu‘lasida kitob varaqlab o‘tirgan edi, nogahon kimdir derazani chertdi; Obidov bilan Latofatni kuzatib qo‘yib, qaytib kirdi, kirarkan, hozir Xolmurodov bilan ko‘rishajagini o‘ylab ko‘ngli g‘ash bo‘ldi* (Yuqoridagi matnlar “Diyonat” romanidan olindi); *Momo bir kun avval yomon tush ko‘rib uyg‘ongan, kunduzi esa, kun bo‘yi ko‘zi uchib, ko‘ngli g‘ash bo‘lib yurgandi* (“Adolat manzili”).

G‘amgin: *U mana endi, har bir so‘zi, ovozi g‘amgin, nigohidan mehr yog‘ilib turgan mittigina kampirining ko‘ngil faryodini eshitgandagina, bu to‘ytomosha chol-kampirga qanchalik og‘ir botishini his etdi; Latofat uyda bo‘lar, kechayu-kunduz boshini kitobdan ko‘tarmas, qandaydir g‘amgin, pinhoniy xayollar og‘ushidan chiqmas edi; Otaqo‘zi boshini silkitib, g‘amgin kulimsiradi* (Yuqoridagi matnlar “Diyonat” romanidan olindi).

Notinch: *Fazilat allaqanday notinch, ko‘ngli bir xil bo‘lib, Latofatning yoniga bordi; Fazilat olisroqda to‘xtab, qizining xatti-harakatlariga birpas suqlanib tikilib turdi, so‘ng ham yuragiga quyilib kelgan onalik mehri, allaqanday notinch tuyg‘ulardan – bu notinch tuyg‘ular ertalabdan beri uning yuragini ezmoqda edi* (“Diyonat”).

2. Odil Yoqubov asarlarida xursandlik (*xursand, mamnun, xushhol, xushnud, xurram, quvnoq, baxtiyor, baxtli, shodmon, shod, xushchaqchaq, masrur* kabi) holatini ifodalovchi sifatlar. Bunday sifatlar kishi ruhiyatidagi oniy lahzalarni, muayyan bir harakat yoki holatdan mamnunlikni turli shakllarda aks ettiradi. Bunday sifatlarning barchasi semantik jihatdan bir nuqtaga, leksik-semantik guruhga birlashib, badiiy nutqda qahramon ruhiy holatini yaqqol ko‘rsatishda keng qo‘llaniladi.

Masrur: *Hayot lazzatlaridan masrur, quvonchi ichiga sig‘may yurgan Haydar bir kun otasiga yorildi* (“Diyonat”).

Xursand: *Judayam xursandman; Polikarnov domlaga xursand bo‘lib gapirdi, katta yordam va’da qildi* (“Diyonat”); *Kichik ota ish oson ko‘chganligidan xursand* (“Osiy banda”); *Muqaddas esa guyo hech narsani sezmas, u nimagadir xursand, hadeb kular, yuzlari gul-gul yashnardi* (“Muqaddas”).

Baxtiyor: *Marjonoy ham o‘zicha baxtiyor edi. Juda baxtiyor edi* (“Adolat manzili”); *Nihoyat baxtiyor dam yetib keldi. Onasi mayda-chuyda olib berdi* (“Baxt qushi”).

Mamnun: *Bugun Otaqo‘zi juda mamnun; U hozir o‘zidan ham, kuyoviga aytgan gaplaridan ham, hammasidan mamnun, chunki bugungi suhbat kuyovida yaxshi taassurot qoldirganini sezardi; Bugun Otaqo‘zi nihoyatda mamnun; Ha, ota yanglishmagan – bu odamlarning hammasi tog‘a-jiyanlarining gaplashib qolganidan mamnun* (Yuqoridagi matnlar “Diyonat” romanidan olindi).

Quvnoq: *Mohiraning ovozi dadasining ovozidan quvnoqroq edi. Bu quvnoq qahqaha Shukurovga yana domla Shomurodovning uyida bo‘lib o‘tgan gaplarni eslatdi* (“Diyonat”).

Xurram: *Shundoq deraza yonidagi tut shoxlarida ikkita qizcha arg‘imchoq uchmoqda, ular ko‘ylaklarining etaklarini hilpiratib, goh uchinchi qavat balkonigacha ko‘tarilar, goh xurram qiyqiriq bilan pastga*

otilar, yerda, ariq bo‘yida esa o‘n uch-o‘n to‘rt yashar bir o‘spirin hayrat to‘la ko‘zlarini qizchalardan uzolmay tamshanib turardi; Uning xayolini Otaqo‘zining: – Tohira! – deb qichqirgan xurram ovozi bo‘ldi; “U odam nima yomonlik qildi sizga”-deb so‘ramoqchi bo’ldi, biroq shu payt oshxona tomonda onabolaning xurram qahqahasi yangradi; Ularning g‘amgin ruhiyasi bilan hozirgina yangragan xurram qahqaha o‘rtasida, qaynotasining mamnun ko‘rinishi, umuman bu serfayz, serzavq baxtiyorlik o‘rtasida qandaydir... pinhoniy adolatsizliklardan dalolat beruvchi katta bir tafovut bor edi (Yuqoridagi matnlar “Diyonat” romanidan olindi).

Xushnud: *Ikkovi ham xushnud, bir-biriga xushmuomala edilar; Vohid Mirobidov... xushnud jilmaydi: – Kechirasiz, rais; Shukurov qaynota-qaynonasi ko‘targan xushnud shovqin-suron ostida kulimsirab hovliga kirdi; Katta ziyofat hidini sezgan xushnud izdihom, betinim kulgu ostida kafega yaqinlashganda, ichkaridan ...Jamol Bo‘riboyevning rafiqasi chiqdi; Sochlarining oqligi va sal to‘lisha boshlagani bo‘lmasa, burungiday basavlat, oppoq yuzlari sipsilliq, burunguday xushnud, burungiday bekamu-ko‘st kiyingan Bo‘riyev avval Otaqo‘zi bilan, so‘ngra qizlar bilan qo‘l berib ko‘rishdi; Haydar xushnud kayfiyatda Qodirjonni chetga chaqirib, Latofatning gaplarini unga aytdi; Hoy, ...Mo‘ylov: “Gapingizga endi tushundim” deganday xushnud jilmaydi; Otaqo‘zi bu gaplarni kutmagani uchunmi yo nihoyatda xushnud bir kayfiyatda kirib kelgani uchunmi, xo‘plagan mastavasi tomog‘iga tiqilib bir zum sarosima og‘ushida qoldi* (Yuqoridagi matnlar “Diyonat” romanidan olindi).

Xushchaqchaq: *Hammomdan chiqqanday qizarib ketgan, lekin xushchaqchaq mamnun Vohid Mirobidov minbardan tushib, joyiga borib o‘tirdi; ...o‘yin-kulgudan boshqani bilmaydigan sho‘x, xushchaqchaq Tohira, endi qandaydir o‘zgarib, cho‘kib, qisilib, qimtinib qolganday tuyuldi unga* (Yuqoridagi matnlar “Diyonat” romanidan olindi).

Shod: *Qizi Tohira behad shod, ... Oyisining yuziday uzinchoq, yoqimtoy yuzi lov-lov yonib, yelkasiga tushgan timqora sochlarini tez-tez to‘g‘rilab atrofga betinim alanglar, ko‘zlari charaqlab hammaga kulib boqardi* (“Diyonat”).

Baxtli: *Dabdurustdan aytib qo‘yaqolay, mehribonlarim: qizlaringiz Marjonoy – dunyodagi eng baxtli inson!; Qanday beg‘ubor baxtli kunlar edi u kunlar. Qanday beg‘ubor!* (“Adolat manzili”); *O‘sha kuni quvonchga quvonch ulashib ketadigan baxtli bir kun edi* (“Muqaddas”).

3. Odil Yoqubov asarlarida g‘azablanish (*g‘azabnok, kinli, darg‘azab, g‘azabli)* holatini ifodalovchi sifatlar. Bunday sifatlar insonning tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar, predmetlar, odamlar xatti-harakatidan noroziligi tufayli yuzaga kelgan kuchli ruhiy holati ifodalanadi:

Darg‘azab: *Soqijon Obidov qandaydir darg‘azab bir alfozda polni gursillatib, eshiklarni sharaq-shuruq ochib kirib keldi; Soqijon Obidov shunday o‘ksib gapirdiki, ota boya qanday darg‘azab bo‘lgan bo‘lsa, endi shunday dovdirab, bir zum gap topolmay qoldi; Buni ko‘rib darg‘azab bo‘lgan Normurod: – Bas! – dedi* (Yuqoridagi matnlar “Diyonat” romanidan olindi); *Gapni sekin boshlagan Mansur mesh ovozi tobora do‘rillab, axiyri baland, darg‘azab pardalarga ko‘tarildi* (“Adolat manzili”).

G‘azabnok: *Maykachan, yalang oyoq, yalang bosh cholning vajohati, g‘azabnok o‘qraygan ko‘zlari shunday qo‘rqinchli ediki, xona jim bo‘lib, hamma joy-joyida sehrlangandek qotib qoldi* (“Diyonat”).

4. Odil Yoqubov asarlarida qahramonning turli (*xotirjam, besaranjom, behalovat, alamli, noxush, jur’atsiz, sergak, hushyor, lol, mudroq, loqayd)* holatini ifodalovchi sifatlar.

Alamli: *Yuragini larzaga solgan bu tashvishli o‘ylar, alamli ko‘nglidagi bu to‘fon naqadar zo‘r bo‘lmasin, charchoq va bedor o‘tgan kechalar o‘z ishini qildi* (“Ulug‘bek xazinasi”); *Zum o‘tmay bu g‘azab, tog‘asiga qarshi dilida jo‘sh urgan bu isyon qandaydir alamli bir tuyg‘u bilan almashdi-yu, uzoq mum tishlab qoldi* (“Diyonat”).

Noxush: *“Otaqo‘zi akayam keptilar-da!” – dedi Shukurov ichida, dedi-yu, ish bilan bo‘lib, xayolidan ko‘tarilgan noxush o‘ylar qayta yopirilib keldi* (“Diyonat”).

Jur’atsiz: *Rangi o‘chgan, entikib nafas olgan o‘gay ona, bejo, labida soxta tabassum, Latofatga allaqanday jur’atsizgina yaqinlashib, o‘pishgani labini cho‘zdi.* (“Diyonat”) – *Tog‘ajon, agar ruxsat etsangiz, men ham boray uyingizga, – dedi u jur’atsizgina* (“Osiy banda”).

Loqayd: *U endi hamma narsaga loqayd, amakisining qistoviga ham yon berishga tayyor edi* (“Diyonat”); *Kechasi yuragida jo‘sh urgan tug‘yon bosilgan, dilini qandaydir teran bir loqaydlik chulg‘ab oldi* (“Ulug‘bek xazinasi”).

Behalovat: *Veteran ham bu shubhalarsiz ham allaqachon ko‘ngli behalovat, yuragi taka-puka edi* (“Adolat manzili”); *Qandaydir behalovat, bezovta uyquda yotgan hazrat Sarkor qora dovulday bostirib kelgan sovuq vahimadan yuragi o‘ynab, uyg‘onib ketdi* (“Osiy banda”).

Besaranjom: *Tepasida Latofat, besaranjom, ma'yus ko'zlari ayanchli multirab turardi* ("Diyonat").

Xotirjam: *U endi kechagidan ham xotirjam, yuragini changallab yotgan sovuq vahimadan asar ham qolmagan edi* ("Osiy banda").

Lol: *Bu kutilmagan jangdan garang bo'lib qolgan Proxor bir o'rtada lol bo'lib turgan Normurod Shomurodovga, bir oqsoqlanib kelayotgan O'rozqulga qaradi; Men oldin bir odam bilan gaplashishim kerak!-dedi domla Shomurodov va Xolidani lol qoldirib, mashinaga qarab ketdi* ("Diyonat"); *Ibn Sino hamon tili lol, namoz o'qib o'tirgan imomga jimgina tikilib turarkan, ko'z oldiga Puli Shahriston ko'prigining ortidagi chilangarlar dahasi keldi* ("Ko'hna Dunyo").

Shunday qilib, inson ruhiy holatini ifodalovchi sifatlar o'z semantik tabiatidan kelib chiqib, qahramonning turli ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi hamda bunday sifatlar alohida leksik-semantik guruhlar qatorini tashkil etadi. Ular badiiy nutqda tasvirlanayotgan qahramonning turli xil kayfiyatini: shodligini, quvonchini, g'am-alamini, ichki kechinmalarini, ruhiy iztiroblarini aks ettirish va shu orqali kitobxonda ham turli xil emotsiyalarni hosil qilishda muhim uslubiy vositalardan biri sanaladi.

Badiiy matnda inson ruhiyatini aks ettirishda ruhiy holat ifodalovchi fe'llar o'ziga xos o'rin tutadi. Ruhiy holat fe'llari insonga xos bo'lgan hissiy-ruhiy holatlarni yaqqol ifodalashi bilan ajralib turadi .

Ruhiy holat fe'llari va ularning xususiyatlari, dunyo tilshunosligida L.M.Vasilyev, G.Kushkarova, N.K.Dmitriyev, S.A.Rizayev, G.Bagirov, Z.Budagova, L.N.Xaritonov, G.V.Stepanovalar tomonidan tadqiq etilgan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida A.Hojiyev, I.Qo'chqortoyev, Sh.Shukurov, H.Yusufxo'jayeva, R.Rasulov kabi tilshunos olimlarimiz tomonidan muayyan darajada o'rganilgan[1]. Xususan, o'zbek tilida inson ruhiy holati bilan bog'liq fe'llarni R.Rasulov o'z tadqiqotida bir necha guruhga bo'lib tasnif qilgan. Bu tasnifda u tasniflangan guruh fe'llari uchun umumiy sema "holat" bo'lsa, xususiy semalari "davomli", "harakat natijasi", "obrazli" , "psixik" holat deb ta'kidlaydi[2]. I.Qo'chqortoyevning o'zbek tilidagi fe'llarning semantik tasnifiga doir maqolasida fe'llarni alohida semantik guruh sifatida chegaralab, ularni ikkiga: psixofizik holat fe'llari va emotsional holat fe'llariga bo'lib tasniflaydi[3].

Ruhiy holat fe'llari holat fe'llarining semantik tarkibiga kiruvchi, asosan, insonda yuz beradigan, uning ruhiyati bilan bog'liq bo'lgan muayyan bir jarayonni ifodalab keluvchi fe'llar hisoblanadi. Ruhiy holat fe'llari inson ruhiy faoliyatini, ruhiy holatini ifodalaydi.

Odil Yoqubov o'tkir qalami va tasvir mahorati bilan tarixiy shaxslarni badiiy haqqoniyati va salobati bilan gavdalantiradi, real shaxslarni o'ta ta'sirchan badiiy obrazga aylantiradi. Davr ruhini, badiiy tasviriy vositalarni, so'zlarning turli bo'yoqlarini berishda, qahramonlar ruhiyatidagi kechinmalarni ifodalashda ko'pincha, mana shu ruhiy holat fe'llaridan foydanadi. Ruhiy holat fe'llarining sememasi holat bo'lib, u holat fe'llarini bir makrosistemaga biriktiradi. Chunki arxisema xarakteridagi holat semasi asosida ruhiy holat fe'llarining semantik maydoni yuzaga keladi. Bu semantik maydonga birlashgan ruhiy holat fe'llari (*azoblanmoq, nafratlanmoq, faxrlanmoq, qo'rqmoq, ajablanmoq, zavqlanmoq, xursand bo'lmoq, xafalanmoq, achchiqlanmoq, yumshamoq, g'azablanmoq, taajjublanmoq, ikkilanmoq, jiddiylashmoq, shodlanmoq, xo'rsinmoq, siqilmoq, xo'mraymoq, xunob qilmoq, ishonmoq, ma'yuslanmoq, mag'rurlanmoq* kabi) Odil Yoqubov asarlarida qahramonlar ruhiy holatini tasvirlashda muhim o'rin tutadi. Ushbu ruhiy holat fe'llari asosida qahramonlar ruhiyatidagi turli-tumanlikni quyidagi tahlillar misolida yoritish mumkin:

"Azoblanmoq", "yig'lamoq", "xo'rlanmoq" ruhiy holat fe'llari insonning jismoniy yoki ruhiy qiynalish, azoblanish holatini ifodalaydi: *Otaqo'zi qizining bo'g'ilib-bo'g'ilib* ***yig'laganidan****, uning haqsiz* ***xo'rlanganidan azoblandi*** ("Diyonat"). Mazkur matnda ruhiy holat fe'llari orqali birdan ortiq qahramonlar (Ota va qiz) ning ruhiy holati ifodalangan.

Latofat yosh to'la ko'zlari bilan Haydarga mo'ltirab qaradi, so'ng yuzini uning ko'ksiga yashirib, o'ksib-o'ksib ***yig'lab yubordi*** ("Diyonat").

…har qalay, bu battolning boyligi Ahmad Maymandiyning boyligidan yuz barobar oshib ketganini sezar va bugun bo'lmasa ertaga uni fosh qilib, boshiga sobiq bosh vazirning kuni tushishidan qo'rqib, ***azoblanardi*** ("Ko'hna dunyo"). Ushbu matnda ruhiy holat fe'li qahramonning qo'rquvdan azoblanish holatini ifodalagan. *Ustod yaralangan qalbimni yana* ***jabrlamang****!...*("Ulug'bek xazinasi"). "Jabrlamoq" fe'li ko'chma ma'noda qo'llanilib, qahramonning qattiq ruhiy azoblanish holati tasvirlangan.

Biz quyida Odil Yoqubov asarlaridagi qahramonlar ruhiy holatini ifodalovchi ruhiy holat fe'llarini quyidagi semalari bilan tahlil qilishga harakat qildik.

[1] Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – В. 5.

[2] Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. – Тошкент: Фан, 1989. – В. 21–26.

[3] Қўчқортоев И. Ўзбек тилидаги феълларнинг семантик классификацияси. Мақола. Saviya.UZ.

Nafratlanmoq – biror-bir shaxsdan, uning qilgan ishlaridan g‘azab aralash jirkanish, nafratlanish holati: *– Nima, ranjish, ranjish ham gapmi? Nafratlanaman! Nafratlanaman hammangizdan!* (“Diyonat”).

Faxrlanmoq – biror kimsa, narsa yoki erishilgan yutuq tufayli mamnun bo‘lish, g‘ururlanish holati: *Sarkor bobosi Mirsharof Mirshabning qishloq ahli oldidagi hurmati bilan faxrlanardi* (“Osiy banda”).

Ranjimoq, xafa bo‘lmoq – qayg‘uli holatda bo‘lish, xafa bo‘lish, ranjish, ozorlanish holati: *– Faqat hozir shu ishni qilish kerakmas edi. Afsus, sir sirligicha qolmadi! – dedi Ota va Sarkordan biroz xafa bo‘ldi* (“Osiy banda”); *Latofat ayni damda Haydarning so‘nggi qilmishidan qattiq ranjidi* (“Diyonat”); *– Begim, axir men sizni bir umr kutardim… Siz bo‘lsa! – dedi Xurshidabonu arazlab* (“Ulug‘bek xazinasi”).

Har qanday holat va uning nozik jihatlari, insonning ruhiy holati, salbiy yoki ijobiy emotsiyasi, obyektga, obyektiv borliqqa, biror shaxsga bo‘lgan modal-ekspressiv munosabati va ularning nozik ma’no ottenkalari asosan ruhiy holat fe’llari orqali talqin etiladi. Ruhiy holatni ifodalovchi fe’llar ruhiyat bilan bog‘liq bo‘lib, asosan, shaxs psixikasida ro‘y bergan kechinmalarni anglatib keladi.

Tilshunos va adabiyotshunos olimlar tomonidan so‘z sehri deb ta’riflanuvchi mazkur jarayon ma’lum ma’noda o‘z moddiy asosiga ega deyish mumkin. Bunda o‘quvchining so‘zni his etish salohiyati, shuningdek, muayyan adabiy jarayon me’yorlari haqidagi bilimi muhim ahamiyatga ega.

Rezyume. Maqolada badiiy matnda ruhiy holat va uning nozik jihatlari, insonning ruhiy holati, salbiy yoki ijobiy emotsiyasi, obyektga, obyektiv borliqqa, biror shaxsga bo‘lgan modal-ekspressiv munosabati va ularning nozik ma’no ottenkalari asosan ruhiy holat sifatlari hamda ruhiy holat fe’llari orqali talqin etilgan. Ruhiy holatni ifodalovchi fe’llar ruhiyat bilan bog‘liq bo‘lib, asosan, shaxs psixikasida ro‘y bergan kechinmalarni anglatib kelganligi ifodalangan.

Resume: In the article, the mental state and its nuances, a person’s mental state, negative or positive emotion, modal-expressive attitude to an object, an objective being, a person and their nuances of meaning are mainly mental state adjectives and mental state verbs in the article. interpreted through The verbs expressing the mental state are related to the psyche, and it is expressed that they mean the experiences that happened in the psyche of the person.

Резюме: В статье психическим состоянием и его нюансами, психическим состоянием человека, отрицательной или положительной эмоцией, модально-выразительным отношением к предмету, предметному существу, человеку и их смысловым оттенкам являются в основном прилагательные психического состояния и глаголы психического состояния в статья интерпретируется через Глаголы, выражающие психическое состояние, относятся к психике, и выражается, что они обозначают переживания, произошедшие в психике человека.